

TOVARLAR KONTRABANDASIGA QARSHI KURASHISHDA SAMARALI MEXANIZMLAR (UYALI ALOQA VOSITALARI MISOLIDA)

Saidov Behzod Tolibovich,

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi xodimi

b.saidov@customs.uz

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida uyali aloqa vositalari kontrabandasiga qarshi kurashish mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida so'nggi yillarda aniqlangan huquqbuzarliklar dinamikasi, noqonuniy olib kirish sxemalari hamda ularning iqtisodiy ta'siri o'rganilgan. Xususan, bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini kuchaytirish, boj olinmaydigan me'yorlarni qayta ko'rib chiqish, IMEI raqamlarini majburiy ro'yxatdan o'tkazish tizimini joriy etish va axborot tizimlarini integratsiyalash orqali kontrabandaga qarshi samarali mexanizm shakllantirilgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. kontrabanda, bojxona nazorati, IMEI tizimi, mobil qurilmalar importi, bojxona to'lovlari, raqamli deklaratsiya, iqtisodiy xavfsizlik, noqonuniy aylanma, xalqaro aeroportlar, bojxona islohotlari

Саидов Бехзод Толибович,

Сотрудник Таможенного комитета Республики Узбекистан

b.saidov@customs.uz

Аннотация. В данной работе анализируется эффективность механизмов борьбы с контрабандой мобильных устройств в Республике Узбекистан. На основе статистических данных рассмотрена динамика выявленных правонарушений, схемы незаконного ввоза и их экономические последствия. Особое внимание уделено мерам, реализованным таможенными органами, включая пересмотр норм беспошлинного ввоза, внедрение обязательной регистрации IMEI-кодов, интеграцию информационных систем и усиление таможенного контроля.

Ключевые слова: контрабанда, таможенный контроль, система IMEI, импорт мобильных устройств, таможенные платежи, цифровая декларация, экономическая безопасность, незаконный оборот, международные аэропорты, таможенные реформы.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida tovarlar harakatining jadallashuvi bilan bir qatorda, ularning **noqonuniy aylanmasi** ham dolzarb muammoga aylanmoqda.

Ayniqsa, qiymati yuqori va bozorda talab yuqori bo'lgan **uyali aloqa vositalari** kontrabandasi davlat byudjeti daromadlariga, ichki bozor barqarorligiga hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, **bojxona organlari tomonidan** ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi tezisda uyali aloqa vositalari kontrabandasiga qarshi kurashish mexanizmi, uning dinamikasi, huquqiy va axborot tizimlari asosidagi islohotlar hamda ularning iqtisodiy samarasi tahlil qilinadi.

1. Huquqbuzarliklar dinamikasi va ularning xususiyatlari

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda uyali aloqa vositalarini noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq 518 ta holat aniqlangan bo'lib, ularning umumiy qiymati 41,5 mlrd so'mni tashkil etgan. 2023-yilning mos davrida esa 501 ta holat (34,2 mlrd so'm) qayd etilgan. 2025-yilda esa 580 ta holatda 34,0 mlrd so'mlik qurilmalar huquqbuzarlik ashyosi sifatida olingan.

Uzoq muddatli dinamikaga nazar tashlansa, 2014-yilda 2020 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 518 tani tashkil etgan. Demak, bu davr mobaynida huquqbuzarliklar soni qariyb **3 barobarga kamaygan**. Bu esa sohada amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlarning ma'lum darajada samara berganini ko'rsatadi. Huquqbuzarliklarning asosiy qismi jismoniy shaxslarga berilgan **imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish, aylanma yo'llar orqali** olib kirish, shuningdek, xalqaro reyslar orqali turli **shaxslar nomiga tarqatib o'tkazish** kabi sxemalar orqali amalga oshirilgan. Ya'ni avval amalda bo'lgan 2000 AQSH dollari miqdoridagi bojsiz olib kirish me'yori ayrim shaxslar tomonidan suiiste'mol qilinib, tovarlarni tarqatib, turli yo'lovchilar orqali olib kirish amaliyotiga sabab bo'lgan.

2. Kontrabanda geografiyasi va tovar tuzilmasi

2024-yilda asosan "Iphone", "SAMSUNG", "LG" va "Redmi" rusumidagi uyali aloqa vositalari huquqbuzarlik ashyosi sifatida olingan. Ushbu qurilmalar asosan BAA, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, AQSH hamda qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari orqali olib kirilgan.

Tahlillarga ko'ra, uyali aloqa vositalarining 77,9 foizi xalqaro aeroportlar orqali, shundan 72,9 foizi **Toshkent xalqaro aeroporti** orqali olib kirilgan. Bu esa nazorat choralari, ayniqsa, bojxona nazorati yo'nalishida yangicha yondashuv asosida kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Huquqiy islohotlar va tartibga solish mexanizmlari

Yuqoridagilardan kelib chiqib bojsiz olib kirish me'yorlari qayta ko'rib chiqildi va bu kontrabandaga qarshi kurashishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-aprelda qabul qilingan 244-sonli qarorga muvofiq, ayrim turdagi tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibi yanada takomillashtirildi va bojsiz olib kirish me'yorlari qayta ko'rib

chiqildi. Natijada yo'lovchilar orqali uyali aloqa vositalarini **noqonuniy olib kirish holatlari keskin kamaydi**.


Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 778-sonli qaror asosida 2024-yil noyabrdan boshlab uyali aloqa vositalarining **IMEI raqamlarini majburiy ro'yxatdan o'tkazish** tartibi joriy etildi. Shunga asosan, endilikda import qilinayotgan barcha mobil qurilmalar bo'yicha IMEI raqamlari bojxona yuk deklaratsiyasi yoki yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida majburiy ko'rsatiladi.

Bojxona qo'mitasi va Davlat personallashtirish **markazi axborot tizimlarining integratsiyalashuvi** orqali raqamli nazorat mexanizmi yaratildi. Bu esa inson omilini qisqartirish, shaffoflikni oshirish va ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish imkonini berdi.

4. Rasmiy import va byudjet tushumlari dinamikasi

IMEI tizimi va amalga oshirilgan huquqiy choralar natijasida rasmiy import hajmi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2019-yilda 541 ming dona uyali aloqa vositasi import qilingan bo'lsa, 2024-yilda 4,1 mln dona, 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 4 110 575 donani tashkil etdi:

2019-2025-yillarda uyali aloqa vositalarining bojxona rasmiylashtiruvidan undirilgan bojxona to'lovlari dinamikasi



Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, 2025-yilda davlat byudjetiga 1 trln 383,5 mlrd so'm bojxona to'lovlari undirilgan. Bu esa uyali aloqa vositalarining kontrabandasiga qarshi kurashish nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samara berganini ko'rsatadi.

5. Raqamli transformatsiya va istiqbolli chora-tadbirlar

Prezidentimizning 2025-yil 25-martdagi 57-son Farmoni asosida yo'lovchi bojxona deklaratsiyasining mobil versiyasini ishga tushirilgan bo'lib, dastlabki bosqichda ushbu tizim Toshkent xalqaro aeroportida, hozirgi kunda esa barcha bojxona postlarida joriy etilgan.

Mazkur o'zgartirish orqali yo'lovchilar chegaraga yetib kelmasdan turib, o'zlari bilan olib kirayotgan tovarlar, jumladan mobil qurilmalar haqida ma'lumotlarni oldindan taqdim etish imkoniga ega bo'ldilar.

Bu esa:

- bojxona nazorati jarayonini tezlashtiradi;
- inson omilini kamaytiradi;
- deklaratsiyalash madaniyatini shakllantiradi;
- noqonuniy olib kirish holatlarini profilaktika qiladi.

Xulosa qilib aytganda uyali aloqa vositalari kontrabandasiga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar — bojsiz me'yorlarni qayta ko'rib chiqish, IMEI tizimini joriy etish, axborot tizimlarini integratsiyalash va raqamli deklaratsiyalashni rivojlantirish — huquqbuzarliklar sonini kamaytirish va rasmiy import hajmini oshirishga xizmat qildi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada kamaygan, byudjet tushumlari esa keskin oshgan. Bu esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli va samarali ekanini tasdiqlaydi.

Kelgusida raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, xavf tahliliga asoslangan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish orqali kontrabandaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Manbalar:

1. Bojxona qo'mitasining YAAT ma'lumotlari;
2. t.me/customschannel rasmiy telegram kanali;
3. Lex.uz rasmiy sayti